



## Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-avgust)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent shahar korxonalaridan tomonidan 50,6 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 113,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (75,2 %) ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 23,9 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 9,3 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 18,3 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 14,4 % ga o'sishi kuzatildi.

*\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



**Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi**




Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,5 trln. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 19,0 % ni tashkil etdi.



**Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

O'tgan yilning shu davriga nisbatan shag'al 4,3 marta, chaqiq tosh 34,5 % ga, neft qazib olish 5,6 % ga, gazli kondensat 1,4 % ga, tabiiy gaz 1,1 % ga oshgan





Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-avgust	2021-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Neft, <i>ming t.</i>	409,7	432,7	23,0
Tabiiy gaz, <i>mln. kub.m.</i>	23 588,5	23 837,8	249,3
Gaz kondensati, <i>ming t.</i>	497,8	504,5	6,7
Chaqiq tosh, <i>ming t.</i>	277,8	373,5	95,8
Shag'al, <i>tonna</i>	1 224,0	5 323,0	4 099,0



### Ishlab chiqarish sanoati


2021-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 38,0 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 75,2 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi  
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 9,6 % ni (2020-yilning yanvar-avgust oylarida 4,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali 14,6 % (17,3 %), o'rta-quyi texnologiyali 23,5 % (19,7 %) va quyi texnologiyali 27,4 % (29,6 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 24,3 % (2020-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi 10,3 % (2020-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 148,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 6,5 % (2020-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 16,0 % (2020-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 6,1 % (2020-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,2 %) ni tashkil etdi.



### Ishlab chiqarish sanoatida ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2021-yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 23,1 ming dona trikotaj yoki mis sim (2020-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 63,4 % ga ko'paygan), 26,1 ming tn paxta iplari (59,7 %.), 26,1 ming tn trikotaj yoki qo'lda to'qilgan matolar (43,4 %), 375,1 ming dona sovutgich va muzlatgichlar (32,9 %), tamaki mahsulotlari 1144,6 mln dona (29,0%) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.




### Ishlab chiqarish sanoatida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-avgust	2021-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oltin gugurt, <i>tonna</i>	187 237,0	175 629,0	-11 608,0
Karobkalar, gofrali qog'oz yoki kartondan idishlar, <i>tonna</i>	10 062,3	1 417,6	-8 644,7
Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari, <i>tonna</i>	11 492,6	8 69,4	-2 523,2
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	200,0	153,2	-46,8
Sovutgich va muzlatgichlar, <i>dona.</i>	282 333,0	375 118,0	92 785,0




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



2020-yil,  
% da



2021-yil,  
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,3 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (4,5 % ini) tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 76,1 % ni tashkil qildi.






### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-avgust	2021-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	204,1	221,2	17,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	8 443,8	8 483,6	39,8
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm.	730 862,0	498 366,0	-232 496,0



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,8 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ni) tashkil etdi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-avgust	2021-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	46,6	59,4	12,8
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	280,4	285,3	4,9
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	106,5	126,8	20,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 1,7 % ga, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 19,0 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 27,4 % ga o'shish kuzatildi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 20,1 trln. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 22,4 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 39,8 % ni tashkil etdi.



2020- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2021- yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 61,8 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,5 % (2020- yil yanvar-avgust oylarining mos davriga nisbatan 9,4 % ga o'sgan) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahri jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 23,6 % ni shuningdek, Bektemir tumani 10,7 % ni, Olmazor tumani 10,6 % ni, Chilonzor tumani 9,6 % ni, Sirg'ali tumani 9,5 % ni hamda Uchtepa tumani 9,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Toshkent shahrida o'sish sur'ati (120,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yashnobod (156,1 %), Bektemir (138,9 %), Olmazor (128,2 %) hamda Yakkasaroy tumanlarida (120,8 %) qayd etildi.





**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2021-yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Toshkent shahar</b>	<b>20 138,7</b>	<b>100,0</b>	<b>122,4</b>
Uchtepa	1 837,0	9,1	107,9
Bektemir	2 149,1	10,7	138,9
Yunusobod	810,6	4,0	89,2
Mirzo Ulug'bek	1 057,5	5,3	114,5
Mirobod	1 333,7	6,6	117,3
Shayxontohur	441,6	2,2	78,7
Olmazor	2 132,2	10,6	128,2
Sirg'ali	1 907,4	9,5	111,9
Yakkasaroy	1 077,2	5,3	120,8
Yashnobod	4 749,5	23,6	156,1
Yangihayot	706,1	3,5	98,0
Chilonzor	1 936,7	9,6	117,3

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 23,6 %, shuningdek, Bektemir 10,7 % ni, Olmazor tumani 10,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy (154,1 %), Bektemir (145,5 %), Olmazor (112,6 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Toshkent shahar</b>	<b>6 795,0</b>	<b>100,0</b>	<b>106,8</b>
Uchtepa	426,5	6,3	95,1
Bektemir	1 784,0	26,2	145,5
Yunusobod	374,7	5,5	85,1
Mirzo Ulug'bek	204,7	3,0	87,4
Mirobod	177,1	2,6	83,5
Shayxontohur	139,8	2,1	68,5
Olmazor	921,2	13,6	112,6
Sirg'ali	898,5	13,2	105,1
Yakkasaroy	348,7	5,1	154,1
Yashnobod	690,7	10,2	78,2
Yangihayot	236,0	3,5	104,7
Chilonzor	593,1	8,7	100,6



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2021-yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Toshkent shahar</b>	<b>12 445,0</b>	<b>100,0</b>	<b>134,2</b>
Uchtepa	1 410,6	11,3	112,5
Bektemir	364,6	2,9	113,8
Yunusobod	372,7	3,0	90,2
Mirzo Ulug'bek	852,8	6,9	123,7
Mirobod	1 156,6	9,3	125,0
Shayxontohur	251,9	2,0	82,9
Olmazor	1 211,0	9,7	143,4
Sirg'ali	932,3	7,5	115,8
Yakkasaroy	728,4	5,9	109,5
Yashnobod	3 356,8	27,0	224,2
Yangihayot	470,1	3,8	94,9
Chilonzor	1 337,2	10,7	126,4

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 27,0 % ni, shuningdek, Uchtepa 11,3 % ni, Chilonzor 10,7 % ni, Olmazor 9,7 % ni, Mirobod 9,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Yashnobod (224,2 %), Olmazor (143,4 %), Chilonzor (126,4 %), Mirobod (125,0 %) tumanlarida qayd etildi.




**Toshkent shahri hududlari kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	<b>2021- yil yanvar-avgust mlrd. so'm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Toshkent shahar</b>	<b>50 558,3</b>	<b>113,7</b>
Uchtepa	3 363,2	107,8
Bektemir	3 660,3	105,8
Yunusobod	2 551,5	85,3
Mirzo Ulug'bek	2 944,5	98,4
Mirobod	4 122,7	104,0
Shayxontohur	3 164,9	115,2
Olmazor	3 381,9	112,1
Sirg'ali	3 940,3	114,0
Yakkasaroy	2 941,9	114,3
Yashnobod	15 212,8	113,5
Yangihayot	1 373,6	103,6
Chilonzor	3 900,5	116,5



**Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksida kamayish kuzatilmadi, lekin Yunusobod (2020-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 84,4 %), Mirzo Ulug'bek (97,8 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligini izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o'sish sur'ati (120,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yashnobod (153,6 %), Mirobod (132,4 %), Olmazor (129,7 %) hamda Bektemir tumanlarida (126,0 %) qayd etildi.



**Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**




Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnobod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 23,6 %), Bektemir (10,7 %), Olmazor (10,6 %), Chilonzor (9,6 %) hamda Sirg'ali (9,5%) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Shayxontoxur (2,2 %) hamda Yangihayot (3,5 %) tumanlarga to'g'ri kelmoqda.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi**  
(2021-yil yanvar-avgust oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 16,2 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,0 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (70,9 %)), Chilonzor tumanida (55,7 %), Yangiheyot (53,1 %), Yunusobod tumanida (50,5 %), Sergeli (46,6 %), Mirzo Ulug'bek (36,6 %), Yakkasaroy (36,5 %) tumanlarida

Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yashnobod (13,8 %), Mirobod (19,6 %) va Shayxontohur (20,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini**  
(2021- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,7 mingta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,2 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 13,3 %) Olmazor tumaniga, 2,1 mingtasi (12,3 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (11,7 %) Uchtepa tumaniga, 1,8 mingtasi (10,9 %) Yunusobod tumaniga, 1,5 mingtasi (9,0 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,3 %) Mirzo Ulug'bek tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2021-yilning yanvar-avgust oylarida shaharda 1 493 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 176 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 11,8 %) Chilonzor tumanida, 160 tasi (10,7 %) Olmazor tumanida, 151 tasi (10,1 %) Shayxontohur tumanida, 142 tasi (9,5 %) Yunusobod tumanida, 142 tasi (9,5 %) Uchtepa tumanida, hamda 137 tasi (9,2 %) Yashnobod tumanida tashkil etildi.







**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari**  
(2021- yil 1-sentyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 215 ta), Chilonzor (2 055 ta), Uchtepa (1 949 ta), Yunusobod (1 822 ta) hamda Shayxontohur (1 496 ta) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shaharda eng ko'p sanoat korxonalari bo'lgan tumanlar (1-sentyabr holatiga ko'ra)



Toshkent shaharda eng kam sanoat korxonalari bo'lgan tumanlar (1-sentyabr holatiga ko'ra)



2021-yilning 1-sentyabr holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (534 ta), Yangihayot (600 ta), Mirobod (961 ta), Sirg'ali (1 048 ta), Yakkasaroy (1 285 ta), Yashnobod (1 353 ta) tumanlarida qayd etildi.